

## TALABA – BAKALAVRLARNING O'QUV JARAYONIDAGI MOTIVATSIYANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Nabiyev Fazliddin

Andijon davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya:** Hozirgi zamonda chet tillariga bo'lgan ehtiyoj kundan – kunga kuchayib bormoqda. Chet tillarini o'rganish davr talabi.Ushbu maqolada chet tillarini o'rganishda motivatsiyaning o'rni va uning afzalliklari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** xorijit til, motivatsiya, muvaffaqiyat, qiziqish, metodika.

Hozirgi zamonda chet tillariga bo'lgan talab tobora kuchaymoqda. Respublikamizda yo'nalişidan qat'i nazar barcha chet tillarini bilishi zarur. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 – yil 13 – maydagi 312 – sonli "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtririshni samarali tashkil etish chora – tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra xorijiy tillarni nafaqat ta'limda balki davlat organlari ham bilishi kerakligi va ularda xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatish yuzasidan bir qancha chora – tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Bu esa chet tillarini ayniqsa, ingliz tilini bilish barchamiz uchun birdek zarur ekanligini anglatadi. Darhaqiqat, chet tillarini bilish bizga juda ko'p muvaffaqiyat eshiklarini olib beradi. Jumladan, chet davlatlariga sayohat qilish, u yertda yangi do'stlar orttirish, chet eldag'i nufuzli korxonalar bilan shartnoma qilish, ularning madaniyati, urf – odati, an'analarini, ta'lim tizimini o'rganish, kabi.Chet tillarini bilgan insonlar bu muvaffaqiyat kalitini qo'lga kiritganligini allaqachon sezishgan va buni o'z so'zlarida ham ta'kidlaydilar. Tilni o'rganish uchun esa insonda xohish va kuchli motivatsiya bo'lsa yetarli.Chet tillarini o'rganaman degan talaba , avalo o'zida ishonchni uyg'otib, tilni tez va samarali usulda o'rganishning yo'llarini qidirishi kerak. Agar talabada tilga nisbatan salbiy munosabat, o'ziga nisbatan motivatsiyaning yetishmasligi va ishonchsizlik tuyg'usi bo'lsa, bu til o'rganishga to'siq bo'ladi.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, tillarni o'zlashtirishga qobiliyati kamroq talabalarda, xohish va motivatsiya kuchli bo'lsa, ular tilni tez va samarali tarzda o'zlashtiradilar. Agar talabaning til o'rganishga vaqtি oz bo'lsa-yu, lekin til o'rganish u uchun zarur bo'lsa, talaba o'z oldiga aniq maqsad va kelajagim uchun bu juda ham zarur, men tez fursatlarda tilni yaxshi o'zlashtirib olaman deya o'ziga motivatsiya bersa, bu ijobjiy natija ko'rsatadi va talaba tez fursatda chet tilini o'zlashtirib oladi. Shunday ekan chet tillarini o'zlashtirishda motivatsiya va talabaning munosabati, ya'ni xohishi va istagi muhim o'rin kasb etadi.Tilga qiziqishni oshirishda o'qituvchining roli beqiyos. Shuning uchun o'qituvchilar ham talabaning tilga bo'lgan qiziqishini ishirish uchun turli xil metodikalardan foydalanib,dars jarayonlarini, kurs mashg'ulotlarini

tashkil etish lozim.Barcha ustozlar o‘z o‘quvchilarini kelajakda yaxshi kasb egasi sifatida ko‘rishni istaydilar va talabalariga doimiy ravishda o‘z motivatsiyalarini berib boradilar. Zero, “O‘z shogirdlarida mehnatdan zavqlanish xislatlarini uyg‘ota bilgan muallim sharaflarga loyiq”.Shuning uchun, “O‘qituvchi inson ruhining injeneridir”, - deydi E.Xabbart.

### **Chet tillarini o‘rganishning afzallik tomonlarini ko‘rib chiqamiz:**

1. Chet tillarini bilgan insonning miyyasi tez ishlaydi. Ko‘p tillarni bilgan insonning miyyasi kattaroq, xotirasi yaxshi bo‘ladi.Eslab qolish qobiliyati rivojlangan boladi.

2. Agar siz chet tillarini bilsangiz yaxshi ish top[ishingiz mumkin.Barchamizga malumki, 2 davlat o‘rtasidagi shartnomalar, yokida kimdir, kimningdir, yaqin insoni chet elda davolanish uchun borsa, albatta tarjimon yollashadi. Yoki bo‘lmasa, oddiy suoermarketda sotuvchilik qilish uchun, narsa xarid qilish uchun ham til bilish zarur. Bu esa til bilganligi uchun insonga ko‘p daromad va muvaffaqiyatni yana ham ohib beradi.

3. Chet tilini bilsangiz boshqa davlatda yashashingiz osonlashadi. Masalan, xohlagan taomingizni nomini aytib buyurtma bera olasiz,shaharlarga sayohat qila olsiz,mexmonxona xizmatlaridan foydalana olasiz, vahokazo.

4. Yangi do‘stlar,tanishlar va hamkorlar orttirasiz. Yangicha dunyoqarash, pozitiv, siz uchun qiziqarli bo‘lgan insonlar bilan muloqot qilasiz, ularning tabiatini o‘rganasiz.

5.Dunyoga boshqacha ko‘z bilan qaray boshlaysiz, yana ham keng va ochiq fikrlay olasiz.Muloqot almashinuvningiz rivojlanadi.

6.O‘z tilingiz, urf-odat, an’analaringiz, so‘z boyligi va talaffuzi kabilarni boshqa tillar bilan,davlatlar bilan solishtirish va tahlil qilish imkoniga ega bo‘lasiz.Til bilganingiz sizga har jahhada muvaffaqiyat qozonishingizga bir turtki bo‘ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, dunyonи ko‘rasiz, ko‘p narsa o‘rganasiz, hayotga bo‘lgan qiziqishingiz, o‘zingizga va boshqalarga beradigan motivatsiyangiz sizda shakllanadi.Bundan tashqari til bilish ko‘plab imkoniyatlar eshigini ochadi, bilimlaringizni yanada boyitishga sizga qo‘l keladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. © Hikmatlar.uz “Mana buyuklar” kanali

2.https://cyberleninka.ru. youtube.

3.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019- yil 19-maydagи 312-sonli qarori.